



# E CONF SERIES



**International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences**

**Hosted online from New York, USA**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

2<sup>nd</sup> February, 2025

## **YUQORI MAXSULDOR NASLLI QORAMOLLAR TRIXOFITIYASINING ETIOLOGIK OMILLARNI ANIQLASH**

Usmonova Xadicha Jo'rayevna

doktoranti Veterinariya ilmiy tadqiqot instituti tayanch

**Kalit so'zlar:** Trixofitiya, Simmental, Qizil-chul, Golshtin-Friz zotlari, etiologik omillar, nerv sistemalari, ichki sekretsiya bezlari, *Tr.verrucosum* etiologik agent.

**Dolzarbligi:** Hozirgi kunda mamlakatimizda chorvachilikni rivojlantirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, ekologik toza mahsulot ishlab chiqarish, chorvachilik mahsulotlariga (go'sht, sut, tuxum) bo'lgan talabni qondirish dolzarb masala hisoblanadi. Chorvachilikni rivojlanishda turli yuqumli va yuqumsiz kasalliklar to'sqinlik qiluvchi asosiy omillardan sanaladi. Jumladan, qoramollar trixofitiyasi chorvachilikda keng tarqalgan bo'lib, teri va uning hosilalarini hamda markaziy nerv sistemasi, ichki sekretsiya bezlari faoliyatini ham izdan chiqaradi.

**Tadqiqotning maqsadi:** Trixofitiya kasalligining kelib chiqish sabablari va uning oldini olish chora tadbirlarini o'rganish maqsad qilib qo'yildi.

O'zbekiston sharoitida ilik bor yuqori maxsuldor naslli qoramollar trixofitiyasining etiologik sabablar o'rganildi. Tadqiqotlarimiz 2023-2024 yil kuzatuvlarimiz davomida yuqumli va invazion kasalliklar qo'zg'atuvchilarini uzatuvchi eng xavfli omillardan biri pashsha va pitlar tomonidan tarqatilishi ma'lum bo'ldi. *Tr.verrucosum* etiologik agent ekaniga qaramay, uning patogen ta'sirining paydo bo'lishi ko'p jihatdan majmuaviy moyil omillarga bog'liq ekanligini o'rgandek. Trixofitiya kasalligini namoyon bo'lishda etiologik omillar majmuasi tashqi va ichki omil sabab bo'la oladi.

**Tadqiqot usullari:** Qoramollar trixofitiyasining asosiy etiologik omillar majmuasi:- qoniqarsiz sharoitda boqish, ob-havo noqulayligi. Muvazanatlanmagan, bir meyorda bo'lмаган озиqlantirish. Teri kasalligiga olib keladigan omillar:-teri kasalliklarining paydo bo'lishida organizmning pastrezistentligi, bir qator virusli va parazitar infektsiyalarining surunkali kechishi. Ektoparazitlarning mavjudligi asallikni



# E CONF SERIES



**International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences**

**Hosted online from New York, USA**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

2<sup>nd</sup> February, 2025

etiologik omillarni paydo bo'lishida asosiy sababchisi ekanligi tadqiqotlarimizda o'z isbotini topdi.

Biz tadqiqotlarimizni chuqur tahlil qilish maqsadida, qoramollar trixofitiyasining asosiy etiologik omillar majmuasi bo'lgan, bir meyorda bo'lмаган oziqlantirish sababini, ferma sharoitida tayyorlangan oziqa ratsion tarkibini o'rganish bilan tahlil qildek.

**Tadqiqot natijalari:** Ferma sharoitida tayyorlangan oziqa ratsion tarkibi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Biotexnalogiya laboratoriyasida olib borildi. Asosiy tadqiqot ishi yosh hayvonlarga qaratildi. Sababi tadqiqotlarimiz davomida 4-5 oygacha bo'lgan buzoqlar orasida trixofitiya kasalligi uchraganligi, kasalliklarni kelib chiqishida va aynan yosh mollar ko'proq shu kasallikka moyil bo'lganligi uchun sigirlarni oziqa tarkibi o'rGANildi. Binobarin, tadqiqot olib borgan fermalarda buzoqlar ona suti bilan 6 oygacha parvarish qilinar ekan. Bu maqsadda turli ratsion qo'llaydigan uchta fermada trixofitiya kasalligini vitaminlarga ham bog'liqligini o'rgandek.

## 1-jadval "Yurt ristqi naslchilik" MChJ naslchilik fermasida Qizil-cho'l zotli sigirlarning ratsionini o'rGANISH natijalari.

Oziqalar	Tabiiy og'irligida, Kg	Quruq modda, kg	Oziqa birligi	Qand, g	Hazmlanuvchi, protein, g
Beda pichani	3,0	2,46	1,47	30,00	274,50
Makka jo'xori silosi	18,0	4,95	3,60	54,00	228,60
Maydalangan makkajo'xori doni va so'tasi.	4,0	3,5	3,8	57,32	208,00
Bug'doy kepagi	4,0	3,32	2,84	64,00	379,20
Tuz	0,15	-	-	-	-
<b>Jami</b>	<b>29,15</b>	<b>14,23</b>	<b>11,71</b>	<b>205,32</b>	<b>1090,3</b>

Fermalar ratsion tarkibida qand-protein nisbati va dag'al oziqa-kontsentrat nisbatining ko'rsatgichlarni farqlanishi asosida tanlab olindi. Fermalar sut yo'naliishida bo'lib, barchasi chetdan olib kelingan, Golshtin-Friz, Qizil-cho'l



# E CONF SERIES



**International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences**

**Hosted online from New York, USA**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

2<sup>nd</sup> February, 2025

hamda Simintal zotli qoramollardan iborat. Shunda, Qashqadaryo viloyatidagi “Yurt ristqi naslchilik” MChJ fermasida 30 bosh, Andijon viloyatidagi “Guliston nurla istiqboli” fermasida 22 bosh, Samarqand viloyatidagi “Sattar bobo” fermasida 33 bosh sigirlar ratsioni tahlil etilib, ularda dermatomikozlar qay darajada tarqalganligi o’rganildi.

**2-jadval “Sattor bobo” qoramolchilik fermasida Golshtin-Friz zotli sigirlarning ratsionini o’rganish natijalari ( sut mahsuldorligi 15 litr/kun, o’rtacha tirik vazni 620 kg)**

Oziqalar	Tabiiy og’irligida, kg	Quruq modda, kg	Oziqa birligi	Qand, g	Hazmlanuvchi, protein, g
Bedapichani	4,0	3,28	1,68	40,00	366,00
Makka jo’xori silosi	18,0	5,95	3,60	54,00	228,60
Maydalangan makka- jo’xori doni va so’tasi.	4,0	3,5	3,8	57,32	208,00
Bug’doy kepagi	3,5	2,91	2,49	56,00	331,80
Ko’k o’tlar	10,0	2,00	1,70	82,60	329,00
Tuz	0,15	-	-	-	-
<b>Jami</b>	<b>39,65</b>	<b>17,64</b>	<b>13,27</b>	<b>289,92</b>	<b>1463,4</b>

Qo’yidagi **1,2,3-jadvallarda** mazkur fermalardagi ratsionlar tarkibi tahlil qilindi. Olib borilgan ratsion tahlillari Qashqadaryo viloyatidagi “Yurt rizqi naslchilik” MChJ fermasida oziqalar jamlamasida 205,32 g qand va 1090,3 g hazmlanuvchi protein bo’lib qand – protein nisbati 0,188 ga teng, ya’ni o’rtacha tavsiya etiladigan me’yordan 4,5-5 barobarga kam. Samarqand viloyati “Sattor bobo” fermasida oziqalarning jamlamasida 289,92g qand va 1463,4 g hazm lanuvchi protein bo’lib, qand protein nisbati 0,198 ga teng, ya’ni o’rtacha tavsiya etiladigan me’yorlardan 5 % barobar kam. Andijon viloyatidagi “Guliston nurla istiqboli” fermasida esa oziqalarning jamlamasida 276,65 g qand va 1423,9 hazm lanuvchi protein nisbati 0,194 ga teng, ya’ni o’rtacha tavsiya etiladigan me’yordan 2,5 barobarga kam.



# E CONF SERIES



**International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences**

**Hosted online from New York, USA**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

2<sup>nd</sup> February, 2025

**3-jadval “Guliston nurli istiqboli” qoramolchilik fermasida Golshtin-Friz va Smental zotli sigirlarning ratsionini o’rganish natijalari ( sut mahsuldorligi 20- 22 letr/kun, o’rtacha tirik vazn 600-535).**

Oziqalar	Tabiiy og’irligida, Kg	Quruq modda, kg	Oziqa birligi	Qand, g	Hazmlanuvchi, Protein, g
Bedapichani	3,0	2,46	1,47	30,00	274,50
Makka jo’xori silosi	18,0	4,95	3,60	54,00	228,60
Maydalangan makka- jo’xori doni va so’tasi.	5,0	4,3	4,8	71,65	260,00
Bug’doy kepagi	3,5	2,91	2,49	56,00	331,80
Paxta shroti	1,0	0,80	0,85	65,00	329,00
Tuz	0,15	-	-	-	-
<b>Jami</b>	<b>30,65</b>	<b>15,42</b>	<b>13,21</b>	<b>276,65</b>	<b>1423,9</b>

Bu ko’rsatgichlar trixofitiya bilan kasallanish darajasini ratsionning qand-protein nisbatiga to’g’ri kelishini ko’rsatdi. “Yurt rizqi naslchilik” qand 205,32 g, protein 1090,3 g, “Sattor bobo” qand 289,92 g protein 1463,4 g/ni tashkil etdi. “Guliston nurli istiqboli” fermadagi oziqa tarkibida qand 276,65 protein miqdori 1423,9 g/ga teng. Eng ko’p qand va protein miqdori “Sattor bobo” fermer xo’jaligida qand miqdori 289,92g, protein 1463,4g/ni tashkil etdi. Ushbu ko’rsatgichlar talab darajasida emasligi aniqlandi.

## Xulosa:

qilib shuni aytish joyizki fermer xo’jaliklaridagi ratsion tarkibidagi qand va protein miqdorining me’yor talabida bo’lmaganligi qo’yida keltirilgaqn fermer xo’jaliklarida trixofitiya ulishi “Yurt rizqi naslchilik” MChJ fermasida trixofitiya bilan kasallangan buzoqlar ulushi 56 %, “Sattor bobo” 18 %, “Guliston nurli istiqboli” fermasida 58 % tashkil etdi. Trixofitiya kasalligining kelib chiqishiga sabab veterinariya-sanitariya va zoogigiyena talablariga javob bermasligi, chorva mollarining ratsioni balanslashtirmaganligi (to’liq qiymatli oziqalar, makro-mikro element va vitaminlar yetishmasligi), diagnostik tekshirishlarni reja asosida vaqtida



# E CONF SERIES



**International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences**

**Hosted online from New York, USA**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

2<sup>nd</sup> February, 2025

o'tkazilmasligi, qoramollarning harakati (migratsiyasi) nazorat qilinmasligi kabi omillar sabab bo'lishini aniqladek.

Kasallik ayrim vitaminlar hamda tashqi parazitlar tufayli yuzaga kelishi va oziqa tarkibida makro-mikro elementlar miqdorini kamligi yoki yo'qligi tadqiqot davomida ma'lum bo'ldi. Biz tadqiqot jarayonida fermadagi ratsiondan kelib chiqqan holda kasallikni oldini olish hamda ertachi samarali davolash usullarini takomillashtirdik.

Undan tashqari em-hashak saqlanadigan omborxonalar va makka jo'xori silosini tekshirganimizda silos oralari mog'orlanganligi va sigir hamda buzoqlarni nam va balchiq holda saqlanganligi ma'lum bo'ldi. Biz tadqiqotlarimiz jarayonida achigan va mog'orlangan oziqa ratsionidan oldirib, oziqa tarkibida yuqorida keltirilgan moddalardan tashqari makro-mikro elimentlar, E,A,D,B kabi vitaminlar ham miqdor darajasida hayvon organizmiga etkazishsa, buzoqxonalarni dizengenetsiya ishlari o'z vaqtida olib borilsa trixofitiya kasalligini kelib chiqishi va rivojlanishini bartaraf etgan bo'lamic.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Саркисов А.Х. Дерматомикозы животных и современные средства их профилактики. - Бюл. ВИЭВ, вып. 42, 1981. С. с. 3 -10.
2. Саркисов А.Х., Королева В.П., Квашнин Е.С., Грэзин В.Ф. Диагностика грибных болезней (микозов и микотоксикозов) животных. М., Колос, 1971. - 144 с.
3. Utilizing monochlorinated iodine as a treatment for trichophytosis in cattle International journal on orange technology <https://journals.researchparks.org/index.php/IJOT> e-ISSN: 2615-8140 | p-ISSN: 2615-7071 Volume: 5 Issue: 5 | May2023<https://journals.researchparks.org/index.php/IJOT/article/view/4388/4115>
4. Qashqadaryo viloyatining cho'l hududida joylashgan qizil zotli qoramollarda trixofitiya kasalligini kelib chiqish sabablari Respublika ilmiy-amaliy koferentsiyasi *Veterinariya sohasidagi dolzarb muammolar yechimi yosh tadqiqotchilar talqinida* TO'PLAM – 1/24 11 28-iyun 2024-yil.
5. Methods of prevention and treatment of trichophyte in cause (literature analysis) Western european journal of modern experiments and scientific methods Volume 2 Issue 4, April 2024 <https://westerneuropeanstudies.com/index.php/1> ISSN (E): 2942-1896